

Sadriddin Ayniyning jadid usulidagi innovatsion o'qitish tizimini olib borish borasidagi ijtimoiy faoliyati

Islamova K. P.⁴⁷

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlari tomonidan o'z davri uchun innovatsiya hisoblangan yangi usuldagi jadid maktablari tomonidan ta'lim-tarbiya tizimini yangilash borasidagi sa'y-harakatlar va bu faoliyatda Sadriddin Ayniyning ma'rifatparvarlik faoliyati haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yangi usul maktabi, jadidchilik harakati "Tahsib us-sibyon", ma'rifatparvarlarning innovatsion qarashlari.

Xalqimiz tarixida eskicha tuzum va ta'lim-tarbiya tizimini qoloqlik hamda xurofotdan qutqaruvchi asosiy kuch yangi qarashlar asosida xalq farzandlariga bilim va kunikmalarni singdirish ekanligi jadid ma'rifatparvarlari tomonidan asosiy g'oya sifatida ilgari surildi. Mazkur harakatlarning dastlabkilari sifatida jadid ma'rifatpari Abdulvohid Munzim 1908 yil Buxoroda yangi usuli jadid maktabini ochdi. Maktab faoliyati uzoq yil faoliyat yuritmagan bo'lsa ham boshqa jadid ma'rifatparvarlarining faoliyatiga mativatsiya bo'lib xizmat qildi[1:33].

Ushbu maktabni ochish va unda o'quv jarayonini yo'lga qo'yishda Abdulvohid Munzim boshchiligida S.Ayniy, Ahmadjon Hamdiy va Hamidxoja Mehriy kabi taraqqiyparvarlar yaqindan turib yordam beradilar. Yangi usul maktabini tashkil etish to'siq va qiyinchiliklarga uchradi. Chunki maktabni tashkil etganlarning o'zi uning usul va qoidasidan xabarsiz bo'lib, tatar muallimlari bu borada tajribali edi. Shuning uchun ham S.Ayniy yozgan ediki, "Yangi usul maktabini tashkil etgan bo'lsakda, ta'lim tartibi nihoyatda darajada buzuq, barchamiz usul va o'qitish tartibi qoidalaridan xabarsiz edik, hech bir narsani bilmaganimizdan jonimiz siqilmoqda edi. Bizga shu narsa belgili ediki, yangi usul manbai Tataristondir"[2:36].

S.Ayniyning o'zi Abdulvohid Munzimning yangi usul maktabi ochilguniga qadar (1908), tatar maktablariga qatnab, dars berish va o'qitish yo'llarini o'rgangan. U "tatar maktabida olti oy ishlab, tajriba orttirdim"[1:29] - deya qayd etgan edi. Maktabda darslarni tashkil etish hamda yangi usullaridan yetarlicha foydalanish uchun S.Ayniy Buxoro shahrida yashaydigan, yangi usul maktablari ishidan xabardor bo'lgan Nizom Sobitov (Sobitov) degan kishi oldiga maslahat uchun boradi. U Attor madrasasi qarshisidagi tatar Xolid Burnashev uyida shunday maktab borligi, o'sha maktab tajribasidan o'rganish lozimligini maslahat beradi.

S.Ayniy ishlagan Nizom Sobitovning tatar maktabida bolalar yosh xususiyatlariga qarab sinflarga bo'lingan. O'rtacha bir kunda 5 soat dars, har bir darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus joriy qilingan. Birinchi bosqichda o'quvchilarga harflar o'rgatilgan. O'quvchi bir darsni o'zlashtirmasa, ikkinchisiga o'tolmagan. Bolalarni yorug' xonalarda, ko'rgazmali qurollar, globus va xaritalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bu maktab an'anaviy usuldagi maktablardan nafaqat shart-sharoitlari, balki o'quvchilar tezda savodini chiqarishi bilan ham afzal bo'lgan. Ularga 10 oylik tahsildan so'ng ta'til berilgan, hafta mobaynida juma kuni va bayram kunlari dam olish kunlari

⁴⁷ *Islamova Komila Payzullayevna Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqotchisi Islamovakomila91@mail.ru*

hisoblangan.

XX asr boshlarida Buxoro sharoitida boshlang'ich maktabning to'rt sinfdan iborat bo'lishini S.Ayniy birinchilardan bo'lib talab qilib chiqadi. U ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining yetakchi rolini va markaziy figura ekanligini to'g'ri anglab yetadi. U darsni uyushtirish va o'tkazishda o'qituvchining mas'uliyati katta ekanligini ta'kidlaydi[4:8-14]. "Tahsib us-sibyon"ning 1909 yilgi Orenburg nashri hozirgacha topilgani ma'lum emas yoki davr sinovlari orqali bizgacha yetib kelmagan. Tadqiqotchi olimlar uning 1917 yildagi nashriga murojaat qiladilar. Xullas, kitobda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi to'g'risidagi fikr-mulohazalar, pedagogik qarashlar jamlangan.

Yangi usul maktabiga birinchi bo'lib, qarshi chiqqanlardan mulla Qamar, mulla Abdurazzoq va mulla Xolmurod Toshkandiylar bilan birlashib qozikalon Burhoniddin va rais Baqoxo'jalar vositasi orqali Abdulvohid Munzim va S.Ayniy maktabini qanday bo'lmasin yopish chora- tadbirlarini ko'rganlar. Yangi maktab masalasida Ostonaqul Qo'shbegi maktabdorlarga xayrixoh bo'lgan. Ulamo jamiyatidan faqat domla Ikrom usuli jadid maktablarining tarafdori bo'lgan, uni qo'llab-quvvatlagan ziyoli kishilardan bo'lgan.

Oxir-oqibat 1909 yil qushbegi, qozikalon maktabni yopish uchun yozilgan fatvoga imzo chekib, muhr bosadi. Ostonaqul qo'shbegi, qozikalon Baqoxo'ja va rais Burhoniddin tarafidan ma'murlar kelib, maktabning yopilganligini rasman Mirzo Abdulvohidga aytadi. Shunday qilib, eskicha o'qitish tarafdorlari bo'lgan mullalarning ig'vosi va fitnasi oqibatida buxoroliklarga ma'rifat nurini tarqata boshlagan Abdulvohid Munzim va S.Ayniyning maktabi ham yopiladi. Ushbu maktab yopilgan bo'lsa-da xalqning ishonchini allaqachon qozongan, ilm-fan va ma'rifatga umid uyg'otgan edi. S.Ayniy maktab yopilgandan keyingi ahvolni shunday izohlaydi: "Maktab muallimi: "Bundan keyin maktabning ochilishi ma'lum emas" deb, rasman qabul qilmaganligi holda, ulamoning fikriga ahamiyat bermasdan 50 ta o'quvchi maktabga qayd etildi. Ushbu maktab hukumat tarafidan yopilgandan keyin, ulamoning takfir va tal'iniga qaramasdan, ellikdan ortiq buxorolik o'quvchilar tatar maktabiga kirib ketdilar"[1:61].

Ma'rifatparvar adib S.Ayniyning Buxoro jadidchilik harakatida va jadid maktablarida olib borgan faoliyati murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat taranglashgan yillarga to'g'ri kelgandi. Ayni bu paytda amirlikda yuzaga kelgan islohotchilik va jadidchilik harakatlari uning dunyoqarashida keskin o'zgarishlar yasadi. Mutaassib ruhoniylar va amirlik hukumatining qattiq qarshilik ko'rsatishi ham uning bu g'oyalaridan qaytara olmadi.

S.Ayniyning mahalliy xalqni, yosh avlodni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalashdagi xizmatlari kattadir. Yoshligida ilm olishga bo'lgan kuchli ishtiyoqi, uni Buxoro madrasalarida o'qishini ta'minladi. Lekin bu vaqtda Buxoro madrasalarida o'qitiladigan fanlardan qanoat qilmay, qanday bo'lmasin uni isloh etish, diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlarni o'rgatadigan yangi usul maktablarini ochishga bel bog'ladi. Madrasadagi eski dars ta'limi bilan xalq farzandlarini yetuk va Vatani uchun sodiq farzandlarni tarbiyalashga erishib bo'lmasligini tushunib yetdi. U keyinchalik, Buxorodagi jadid maktablarini tashkil etishning dastlabki tashabbuskorlaridan biriga aylandi. S.Ayniy shaxsning kamoloti va jamiyat taraqqiyotida ma'rifat rolini yuqori o'ringa qo'yadi. Xalqning iqtisodiy ahvolini aholi o'rtasida ma'rifat tarqatish yo'li bilan yaxshilash mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u "Fan xalqqa boylik keltiradi"[2:26], - deb yozgan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalar bilan bir safda Sadridin Ayniy ham xalqning dard-u-hasratini, uning ayanchli va mudhish qismati, fojiali turmush tarzini o'z ko'zi bilan ko'rib, qalbi va vujudidan o'tkazib, aql-zakovatini, butun ongli hayotini shu xalq erki, ozodligi va taraqqiyotiga safarbar qildi.

Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan tariximizda ta'lim-tarbiya tizimida sezilarli hissa qo'shganligi bugungi davr pedagog mutaxassislari tomonidan ham o'ziga xos innovatsion qarashlar sifatida foydalanib kelinmoqda. Ma'rifatparvarlarimizning mazkur yo'nalishdagi qilingan ishlari va ular tomonidan amalga oshirilgan ishlari hamda yaratilgan asarlarini o'rganish har davrdagidek muhim ahamiyatga ega.

Jadid ma'rifatparvarlaridan hisoblangan Sadridin Ayniy ham yangi usul jadid maktablari faoliyatida va o'qitish tizimida o'z tashabbusi asosida yaratilgan asarlari bilan katta ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materialar. - B. 36.
2. Ayny S. Tahsib us-sibyon. - Samarqand: 1917. - Sah. 8-14.
3. Tabarov S. Munzim. - Dushanbe: Irfon, 1991. - Sah. 33.